BOSHLANG‘ICH SINFLARNING TARBIYAVIY ISHLAR TIZIMIDA SINF RAHBARINING FAOLIYATINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Berdiyarova Maxfuza Ilhom qizi
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti magistranti

Qabul qilindi: 27.10.2025
Ko‘rib chiqildi: 28.10.2025
Tasdiqlandi: 29.10.2025

Kalit so‘zlar:
boshlang‘ich ta’lim, tarbiyaviy ishlar tizimi, sinf rahbari, pedagogik metodika, interfaol yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyaviy rivojlanishida sinf rahbarining o‘rni va faoliyati metodik jihatdan yoritilgan. Maqolada sinf rahbarining o‘quvchilar bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlarining asosiy yo‘nalishlari, darsdan tashqari faoliyatni tashkil etish shakllari, ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlik mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, tarbiyaviy ishlarning zamonaviy metodlari, interfaol yondashuvlar va shaxsga yo‘naltirilgan tarbiya konsepsiyasining boshlang‘ich sinf sharoitida qo‘llanilishiga e’tibor qaratilgan. Tadqiqotda sinf rahbarining pedagogik mahorati, kommunikativ ko‘nikmalari va tashkiliy faoliyatining o‘quvchilarning axloqiy shakllanishiga ta’siri ilmiy asosda ochib berilgan.

Ключевые слова:
начальное образование, система воспитательной работы, классный руководитель, педагогическая методика, интерактивный подход, личностно-ориентированное образование.

Аннотация. В статье методически рассматривается роль и деятельность классного руководителя в образовательном развитии учащихся начальной школы. Анализируются основные направления воспитательной работы классного руководителя с учащимися, формы организации внеклассной деятельности, механизмы взаимодействия с родителями и общественностью. Также уделяется внимание применению современных методов воспитательной работы, интерактивных подходов и концепции личностно-ориентированного образования в начальной школе. В исследовании научно раскрывается влияние педагогического мастерства, коммуникативных навыков и организаторской деятельности классного

Keywords:
primary education, educational work system, class teacher, pedagogical methodology, interactive approach, person-centered education.

руководителя на нравственное формирование учащихся.

Abstract. This article methodologically covers the role and activities of the class teacher in the educational development of primary school students. The article analyzes the main areas of the class teacher's educational work with students, forms of organizing extracurricular activities, mechanisms of cooperation with parents and the public. Attention is also paid to the application of modern methods of educational work, interactive approaches and the concept of person-centered education in primary school. The study scientifically reveals the impact of the pedagogical skills, communicative skills and organizational activities of the class teacher on the moral formation of studentswn.

Kirish. XXI asr axborot texnologiyalari, globallashuv va tezkor ijtimoiy o‘zgarishlar davrida inson kapitalining sifatini oshirish, ya’ni har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol, ma’naviy-axloqiy jihatdan sog‘lom avlodni tarbiyalash eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Bunday shaxsni shakllantirish jarayoni ta’lim tizimining eng muhim bo‘g‘ini maktab, xususan, boshlang‘ich ta’lim bosqichidan boshlanishi zarur. Chunki aynan shu bosqichda bolaning shaxsiyati, xarakteri, ijtimoiy ko‘nikmalari va dunyoqarashi shakllanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ilk bor ijtimoiy muhitga kirib boradi, maktabdagi tartib-intizom, jamoa hayoti, muloqot madaniyati bilan tanishadi.

Bu jarayonda sinf rahbarining o‘rni beqiyosdir. U nafaqat o‘quv jarayonini boshqaradi, balki bolalarning ichki dunyosini anglaydi, ularning individual xususiyatlarini o‘rganadi, oilasi bilan hamkorlik qiladi hamda tarbiyaviy ishlar orqali shaxs sifatida kamol topishiga yo‘l ochadi. Sinf rahbarining faoliyati tarbiyaviy tizimning asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, u tarbiyaning barcha yo‘nalishlarini o‘z ichiga olgan holda, rejalashtirilgan, tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan ishlarni amalga oshiradi. Sinf rahbari o‘quvchi shaxsini shakllantiruvchi asosiy pedagogik figura bo‘lib, uning faoliyati o‘quvchi, ota-ona va maktab jamoasi o‘rtasidagi uzviy aloqani ta’minlaydi. “Yoshlar tarbiyasiga befarq qarash kelajakka befarq qarashdir. Har bir pedagog yosh avlodni komil inson etib tarbiyalashda o‘z oldiga katta mas’uliyatni qo‘yishi lozim.”[1] Ushbu

[1] Mirziyoyev, Sh. M. *Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston 2018.

fikr sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar tizimidagi o‘rni va mas’uliyatini chuqur anglatadi. Bu faoliyatda bolalarning yoshiga, psixologik va ijtimoiy xususiyatlariga mos metodik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va zamonaviy tarbiya vositalaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishdagi samarali metodlar, sinf rahbarining funksiyalari, o‘quvchi shaxsiga individual yondashuv, ota-onalar bilan hamkorlik masalalari hamda zamonaviy tarbiya yondashuvlari yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang‘ich ta’lim tizimida tarbiyaviy ishlar va sinf rahbarining faoliyatini ilmiy-nazariy asosda yoritgan ko‘plab mahalliy va xorijiy pedagog olimlarning ishlari mavjud. Jumladan, A. Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ta’lim-tarbiya bir butunlikda olib borilishi zarurligi, bolani go‘zal xulq va ma’naviyat asosida tarbiyalashning ustuvorligi haqida fikr yuritilgan. Bu g‘oya zamonaviy tarbiyaviy yondashuvlar bilan uzviy bog‘liq. “boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi bolaga nafaqat bilim beradi, balki uning axloqiy olamiga yo‘l ochadi, ijobiy fazilatlarni shakllantiradi.” [2]

Shuningdek, Z. Qodirova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sinf rahbarining o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida individual yondashuvga e’tibor qaratish, ularning oilaviy muhitini o‘rganish va tarbiyaviy faoliyatni shunga mos tashkil etish zarurligi ta’kidlanadi. U pedagogik monitoring va psixologik kuzatuv orqali o‘quvchi shaxsining rivojlanishini tizimli baholashni taklif etadi. B. Yo‘ldoshev o‘z tadqiqotida boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarning rejalashtirilishi, sinfdan tashqari faoliyat turlari tadbirlari, ekskursiyalar, sahna ko‘rinishlari orqali bolalarda ijtimoiy faollik va jamoaviylik tuyg‘usini shakllantirish muhimligini ta’kidlaydi. U innovatsion yondashuvlar va interaktiv metodlar orqali bolalarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishni ilgari suradi.

Munozara. Boshlang‘ich sinflarda tarbiyaviy ishlar samaradorligini ta’minlashda sinf rahbarining metodik yondashuvi yetakchi o‘rinni egallaydi. Ammo bugungi ta’lim tizimida bu borada bir qator bahsli masalalar ham mavjud. Jumladan, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda sinf rahbarlarining pedagogik tayyorgarligi, ularning innovatsion metodlardan foydalanish darajasi, ota-onalar bilan hamkorlikdagi uzilishlar va tarbiyaning natijadorligini baholash mexanizmlarining yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani amaliyotda dolzarb muammolar sifatida qayd etiladi. Ba’zi pedagogik adabiyotlarda tarbiyaviy ishlar maxsus fan o‘qituvchilari yoki psixologlar zimmasiga yuklatilishi kerakligi haqida qarashlar mavjud. Biroq, ushbu fikrga qarshi turuvchi yondashuvlarga ko‘ra, aynan sinf rahbari bola bilan eng ko‘p muloqot qiluvchi va u bilan kundalik hayotda bevosita ishlovchi shaxs bo‘lgani sababli, tarbiyaviy jarayonlarning tabiiy va samarali kechishini aynan u ta’minlay oladi. Shu sababli, tarbiya

[2] Yo‘ldosheva, M. *Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun pedagogika asoslari*. Toshkent: “Fan va texnologiya”2020.

faoliyatini boshqa mutaxassislar zimmasiga to‘liq yuklatish emas, balki sinf rahbari faoliyatini mazmunan boyitish va uni metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir.

Yana bir muhim jihat bu tarbiyaviy ishlarning mazmunida umumiy andozalarga ortiqcha tayanishdir. Har bir sinfning, har bir o‘quvchining individual xususiyatlari mavjud bo‘lishiga qaramay, ko‘plab maktablarda bir xil mavzular, tadbir shakllari va rejalari bilan cheklanilib qolinyapti. Bunday yondashuv o‘quvchilarning tarbiyaviy ehtiyojlariga to‘la javob bera olmaydi. Shuning uchun ham individual yondashuv, moslashtirilgan rejalashtirish va mos pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish zarur. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish borasida ham ayrim sinf rahbarlari muammolarga duch kelmoqda. Raqamli savodxonlik darajasining pastligi, metodik qo‘llanmalar va interaktiv vositalarning yetishmasligi ushbu yo‘nalishdagi salohiyatni to‘laqonli ishga solishga to‘sqinlik qilmoqda.

Mazkur muammo pedagog kadrlar malakasini oshirish kurslari orqali bosqichma-bosqich bartaraf etilishi mumkin. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish uchun faqatgina nazariy bilim emas, balki amaliy-metodik qo‘llab-quvvatlov, ota-onalar bilan uzluksiz hamkorlik, maktab ichki tizimidagi muvofiqlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda sinf rahbari faoliyatini takomillashtirish, ularni yangi yondashuvlar bilan qurollantirish orqali tarbiya sifati yuqori darajaga ko‘tarilishi mumkin. Tadqiqot natijalari asosida tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar, innovatsion yondashuvlar va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishda sinf rahbarining faoliyati muhim o‘rin tutadi. Tarbiya jarayoni o‘z-o‘zidan kechmaydi, balki u puxta rejalashtirilgan, tizimli va bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda olib borilgan faoliyat natijasida samarador bo‘ladi. Shu bois, sinf rahbari faqatgina dars jarayonini tashkil etuvchi emas, balki o‘quvchi shaxsini shakllantiruvchi asosiy tarbiyachi sifatida maydonga chiqadi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida tarbiya ishlarining to‘g‘ri tashkil etilishi o‘quvchilarda ijtimoiy faollik, mustaqil fikrlash, jamoada ishlash, odob-axloq, vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Sinf rahbarining bu boradagi yondashuvi esa nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy ko‘nikmalarga, individual yondashuvga, ota-onalar bilan samarali hamkorlikka va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga tayanishi lozim. Tadqiqotda aniqlanishicha, sinf rahbarlari faoliyatida ba’zi metodik kamchiliklar, ota-onalar bilan aloqadagi uzilishlar va innovatsion metodlardan foydalanish darajasining pastligi mavjud. Shu sababli, sinf rahbarlari uchun malaka oshirish kurslari, metodik qo‘llanmalar, amaliy seminarlar orqali ularning kasbiy salohiyatini doimiy ravishda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, boshlang‘ich ta’lim tizimida tarbiyaviy ishlarni

takomillashtirish orqali nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki kelajakda barkamol avlodni tarbiyalashga zamin yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2018). *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. Toshkent: O'zbekiston.

2. Yo'ldosheva, M. (2020). *Boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun pedagogika asoslari*. Toshkent: "Fan va texnologiya".

3. Tursunova, D. (2021). *Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi*. Toshkent: TDPU nashriyoti.

4. Olimova, G. (2022). *Sinf rahbarining oila va jamoatchilik bilan hamkorligi*. Samarqand: SamDU nashriyoti.

5. Qodirova, N. (2019). *Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda zamonaviy metodik yondashuvlar*. Toshkent: O'zPFITI.

6. Eshmurodova G.X, Berdiyarova M.I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini oshirishga xizmat qiluvchi omillar; Pedagogika OAK jurnali. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal; Toshkent, 2024 6-son

7. Eshmurodova G.X, Berdiyarova M.I**.** Methodology of Spiritual Education in Primary E;IF (импакт-фактор)12,38 / 2024; American Journal of Alternative Education ISSN: 2997-3953 (Online) Vol. 1, No. 10, Dec 2024, Available online at: https://scientificbulletin.com/index.php/AJAE; 113-116 betlar

8. Eshmurodova G.X, Berdiyarova M.I. Spiritual Qualities of Primary School Students;IF (импакт-фактор)12,43 / 2024 Excellencia: international multi-disciplinary journal of education https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje 290-294 betlar.

9. Primova, M. (2024). INTERPRETABLE PHRASEOLOGICAL UNITS OF CHARACTER EXPRESSION IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES. *Академические исследования в современной науке*, *3*(5), 130-134.

10. Pirimova, M., Torambetov, B., Kadirova, S., Ziyaev, A., Gonnade, R. G., & Ashurov, J. (2022). Synthesis, crystal structure and Hirshfeld surface analysis of a zinc (II) coordination polymer of 5-phenyl-1, 3, 4-oxadiazole-2-thiolate. *Structure Reports*, *78*(8), 794-797.

11. Pirimova, M. A., Kadirova, S. A., Ziyayev, A. A., & Buvraev, E. R. (2023). Co (II) VA V (V) NING 5-(FENIL)-1, 3, 4-OKSADIAZOL-2-TION ASOSIDAGI ARALASH METALLI KOMPLEKS BIRIKMASINI ANTIOKSIDANTLIK FAOLLIGINI O 'RGANISH. *2020, No. 1 (119/2)*, *119*(90), 5-9.

12. Primova, M. A. Kadirova Sh. A., Ziyayev AA, Buvrayev ER Co (II) va V (V) ning 5-(fenil)-1, 3, 4-oksadiazol-2tion asosidagi aralash metalli kompleks birikmasini antioksidantlik faolligini o'rganish. *Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi-2020 yil*.

13. Primova, M. A., Kadirova, S. A., Ziyayev, A. A., & Buvrayev, E. R. (2020). va V (V) ning 5-(fenil)-1, 3, 4-oksadiazol-2tion asosidagi aralash metalli kompleks birikmasini antioksidantlik faolligini o'rganish.

14. Нуралиева, Г. А., & Пиримова, М. А. Universum: Химия и биология: электр. научн. журн. 2020. № 2 (68).

15. PIRIMOVA, M. A., KADIROVA, S. A., & ZIYAYEV, A. A. (2025). Synthesis and study of complex compounds with 1, 3, 4-oxadiazole derivatives based on ammonium vanadate. *Chemistry and chemical engineering*, *2024*(4), 5.

16. Abdukhakim, Z., & Mehribon, P. (2025). SYNTHESIS, CRYSTAL STRUCTURE AND HIRSHFELD SURFACE ANALYSIS OF A 2–CARBOXYMETHYLTHIO-5-PHENYL-1, 3, 4-OXADIAZOLE. *Universum: химия и биология*, *4*(6 (132)), 31-35.

17. Mehribon, P., & Ziyaev, A. A. Synthesis, Crystal Structure and Hirshfeld Surface Analysis of A 2–rboxymethylthio-5-Phenyl-1, 3, 4-Oxadiazole. *Available at SSRN 5120800*.

18. Саидов, С. С., Исмаилова, Д. С., & Абдуразаков, А. Ш. (2025). СИНТЕЗ АЗОМЕТИНОВ И АМИДОВ В РЯДУ 1, 3, 4-ОКСАДИАЗОЛОВ. *Universum: химия и биология*, *3*(6 (132)), 23-28.

19. Mehribon, P., & Ziyaev, A. A. Synthesis, Crystal Structure and Hirshfeld Surface Analysis of A 2–rboxymethylthio-5-Phenyl-1, 3, 4-Oxadiazole. *Available at SSRN 5120800*.